



BADIIY TARJIMADA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MASALALARI (“DUNYONING ISHLARI” ASARINING INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA

Xudayqulova Gulnoza Komilovna

Alisher Navoiy nomli Toshkent Davlat O‘zbek tili va Adabiyoti

Universteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15771271>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil

Ma’qullandi: 28-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

*badiiy tarjima, frazeologik
birliklar, muqobillik,
klassifikatsiyalash, muqobil
variant,*

ABSTRACT

Ushbu maqolada frazeologik birliklar, ularning klassifikatsiyalari haqida atroflicha o‘rganilib, badiiy tarjimada ular qanchalik ahamiyatli ekanini bilib olamiz. “Dunyoning ishlari” asaridagi frazeologik birliklar tahlilga tortilgan, asliyat va tarjima matnlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning tarjimadagi muammolari keltirilgan. Asarda keltirilgan bazi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimasida muqobil variantlari berilgan.

Hozirda ham ilmiy-tehnika, ham madaniy va iqtisodiy jihatdan shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda turli mamlakatlar o‘rtasidagi og‘zaki va yozma nutq vositasi bo‘lgan til ham taraqqiy etib bormoqda. Dunyo madaniyati rivojlanishi uchun albatta til muhim rol o‘ynaydi. Har bir tilning o‘ziga xos jozibasi va madaniyati tarjima qilganda boshqa bir tilga ko‘chadi. Albatta bunda tarjimonlarning mahorati bilinadi. Bunday vaziyatda tarjimonlar har bir tildagi leksik, frazeologik birliklar, maqol, ibora, matallarni tarjima qilganda so‘z boyligiga etib berishi, ularning ma‘nosini bilishi va ularning ekvivalentlarini yoki muqobil variantlarini qo‘llashi kerak.

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklar semantik, stilistik va lingvokulturologik jihatlarini namoyon etgan ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli mental tuzilma sifatida talqin etiladi.

Frazeologiya – (yunoncha *phrasis* – ifoda, ibora va *logos* o‘rganish) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini o‘rganuvchi bo‘limi va muayyan tildagi frazeologizmlar majmuyidir.

Frazeologik birliklar xalqning asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifoda va tasviriy vositalari bo‘lib, ular qisman yoki to‘liq majoziy, ko‘chma ma’noga ega so‘zlarning barqaror, izchil birikmasi hisoblanadi. Bular asarni ifodaviyligi, tasirchanligi va ma‘naviy bo‘yoqdorligini yanada oshiradi. Juda ko‘p o‘zbek yozuvchilari asarlarida biz frazeologik birliklarni ko‘ramiz. Shunday adiblardan biri O‘tkir Hoshimovning asarlaridan birini tahlilga tortdik. “Dunyoning ishlari” O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar asar. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to‘liq tarzda 2005-yilda “Sharq nashriyoti” tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko‘p bora qayta nashr etildi. Ijodkorning bua sari albatta chet tillariga ham tarjima qilindi jumladan rus va ingliz tillariga. Asar ikki bor ingliz tiliga tarjima qilingan. Birinchi marta 2013 yilda tarjimon O. Mo‘minov tomonidan “Affairs of Life. Stories” nomi bilan tarjima qilingan. (Toshkent. Yangi asr avlodi 2013.) Ikkinchi tarjima varianti esa amerikalik tarjimon Mark Riz

va andijonlik yosh tarjimon Abdulloh Ro'ziyevlar tomonidan tarjima qilingan . Bu asrni yozuvchi uzoq yillar davomida yozgan balsa tarjimonlar ham 5 yil davomida tarjima qilgan. Yani andijonlik magistr talabasi Abdullojon Ro'ziyev 2018 yilda Tajima qilib bo'lgan. U asrni 2 yil davomida tarjima qilgan. Bu paytda Mark Riz Abdulla Qahhorning " O'tgan kunlar" asarini tarjima qilayotgan bo'lgani uchun bu asrni tahrirlash ishlari qolib ketadi. Va nihoyat tarjimani tugatgan Mark Riz Abdulloh bilan bu asrni birgalikda tahrirlab nashr ettirishga beradilar. Hozir biz asrni asliyati va inglizcha tarjimasidagi tarjima masalalarini ko'rib chiqamiz. Asrni o'qiganimizda yozuvchi asarda haqiqatda juda tasirli va hayotiy voqealarni yozganini his etishimiz mumkin. Asarda frazeologik birliklarni asliyatidagi va ingliz tilidagi tarjimasidagi tarjima muammolarini ko'rib chiqamiz. Masalan:

Asliyatda: Bolaligimni eslasam iliq yoz kechalari **ko'z oldimga keladi.**(eslamoq,tasavvur qilmoq)

Tarjimada: My earliest childhood memories **invariably evoke** recollections of summer.

Lekin asarning keying o'rinlarida ham bu FB uchraydi va tarjimon bu yerda tarjima qilishda inglizcha ekvivalentidan foydalangan. Masalan:

Asliyatda: Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari **ko'z oldimga keladi.** Bilmadim ehtimol o'sha oq oydin kechalarda onam ilk bor **qo'limga qalam tutqazgandir.**

Tarjimada: When I remember my childhood, these images from the warm summer evenings **appear before me.** Who knows, perhaps during these luminous, moonlit nights my mother first **placed the pencil in my hands** to render them into tales... Ko'z oldimga keladi – appear before me inglizcha variantini qo'llagan. Ingliz tilida bu iboraning bir necha xil ko'rinishlari bor:

- 1.Come to my mind – hayoliga kelmoq,birdan esga tushmoq.
- 2.Call to mind – yodga olmoq, esga tushurmoq.
- 3.Ring a bell – tanish tuyulmoq.esga solmoq.
- 4.Bear in mind – eslab qolmoq yodda tutmoq.
- 5.Refresh someone's memory – eslatib yubormoq.

Bularni barcha eslamoq degan ma'noni bersa ham, gaplarda ishlatilganda albatta ma'no ifodaviylikida farq bor. Tarjimon albatta bulardan to'liq mos tushuvchi birini topib to'g'ri tarjima qilgan.

Asliyatda: Shu **bodom tagida** supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga **ko'loplatib suv separ, kun** bo'yi oftobda qizigan yer hidi **supa** oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Tarjimada: **Near this solitary almond tree** sat a small supa. At sunset, my mother **would sprinkle water** about the **hovli** cooling the ground baked by the sun throughout the day. The earth always emitted a heady scent mingled with the fragrance of basil growing nearby a stillness always descended throughout with the arrival of dusk.

Bu gapda **tagida** so'zini inglizcha tarjimasida **near** deb tarjima qilgan. Lekin near tagida emas **yaqinida**, degan ma'noni beradi. Naer this solitary almond tree gapini - Under this solitary almond tree deb tarjima qilinsa tug'riroq muqobil variant bo'lar edi. Bodom tagida – near this solitary almond tree – under this almond tree.

Bundan tashqari bu yerda **hovli, supa** soʻzlari milliylikni aks ettiruvchi soʻzlar boʻlgani uchun inglizcha tarjimada “supa”, “hovli” deb transliteratsiya qilingan va iqtibos keltirilib pastda bu soʻzlar izohlab berilgan.

sprinkle water deb tarjima qilingan, koʻloblatibni aynan muqobil varianti ingliz tilida yoʻqligi uchun. Lekin bu soʻzni tarjimada tushurilib qoldirilishi asliyatdagi maʼnoni ekspressivligini yaʼni ifodaviyligini susaytirgan.

Xulosa. Badiiy tarjimada har bir matnning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari boʻladi. Tarjimon tarjima qilganda albatta shu jihatlarga etibor berishi lozim. Agar tarjimon asarni asliyatidagi matnidan oʻzgacha qilib tarjima qilsa unda u asar tarjimonning oʻzining ishi boʻlib qoladi. Badiiy tarjimada asl matnni boshqa tilga tarjima qilganimizda avvalo imkon qadar toʻla - toʻkis holda mos tushadigan qilib tarjima qilib berilishi zarur. Aks holda mantnni asliyati, lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari yoʻqoladi. Tarjimonlar turli millatlarni, unlarning tillarini, madaniyatlarini bogʻlab turuvchi koʻprikdir. Agar tarjimon tarjimada tarjimadagi uslublarni toʻgʻri qoʻllay olsa bu tarjimaning va tarjimonning muvaffaqiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . Gʻafurov, O.Moʻminov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. -Toshkent, 2021.
2. Hoshimov Oʻtkir. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Roʻziev Abdulloh, Mark Reese. Such is life. - Columbia, SC, 2024.
4. Поливанов Е.Д. Русский язык сегодняшнего дня. – М. –Л., 1928 (б). – Кн. 4. –С.144.
5. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticheskii i linvokulturologicheskii aspekt. – М.: Shkola yaziki russkoy kulturi.
6. Мусаев Кудрат. Таржима назарияси асослари: Дарслик. - Т.: Фан, 2005.
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>
8. <https://dictionary.cambridge.org/ru/.sprinkle>
9. Omonova M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent: Zebo prints, 2023.
10. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/44-jahon-adabiyoti?start=200>